

**OGZAKI NUTQNI RIVOJLANIDA “BAHRU-BAYT” BELLASHUVLARI**

**Yuldasheva Iroda Abduvahobovna**

*Namangan viloyati Uchqo’rg’on tumani*

*12-umumta’lim maktabi boshlang’ich sinf o’qituvchisi*

Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan davrda, vatanimiz kelajagi va umidi yoshlardir. Shuning uchun yoshlarga har sohada e’tibor va keng yo’l ochib berildi.

Masalan ishlab chiqarish, xususy tadbirkorlik bilan shug’ullanmoqchi bo’lgan yoshlarga barcha imkoniyat yaratilmoqda. Shu jumladan san’at, sport, ta’lim sohalarida ham yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Yuksak yutuq va keng imkoniyatlarni qo’iga kiritish uchun, maktabda o’quvchilik davridanoq tayyorlanmoq zarur.

Boshlangich ta’lim jarayonida sifatli ta’lim berish juda muhim. Boshlang’ich ta’lim bosqichida o’quvchilarni fikrlash dunyosini, zehnini mustahkamlb borishni, bir qancha turlari bor. Shulardan biri — Bahru- bayt||dir

—Bahru —bayt — asosan she’riy va maqollar asosida tashkil qilinadi. O’qish davrida bu usullardan foydalansa bo’ladi. —Bahru bayt — bolalar zehnini, topqirlilikni, hozirjavoblikni va og’zaki nutqni rivojlantirishda katta samara beradi. Bunday bellashuvni o’tkazishni o’z qoidalari mavjud:

-O’yin ikki o’quvchi yoki ikki guruh o’rtasida o’tkziladi

-She’r yoki maqol —Alifbo — dagi A harfi bilan boshlanadi

-She’r yoki maqolni oxirgi so’zi qaysi harf bilan tugasa, keyingi she’rni osha harf bilan ikkinchi ishtirokchi davom ettiradi.

-bellashuv davomida tomonlardan biri navbatdagi harfga she’r yoki maqol ayta olmasa, she’r aytgan tomon o’zi qayta she’r aytib g’olib bo’ladi.

Bunday qiziqarli o’yinlar boshlang’ich sinflarda 1-sinflar uchun ilk davrda o’tkazilsa ham bo’ladi. Savod o’rgatish davrida so’zlardan foydalanish mumkin.

Ana, aka, anor, raqs, sport, tomchi, ilon, naqsh, shamol, lola.

Qolgan o’quvchilar bellashayotgan o’quvchilarni sinchkovlik bilan kuzatib boradilar. O’quvchilarni darsga to’la jalb qilish o’qituvchining ijodkorlik mahoratiga bo’g’liq. O’qituvchi o’zi ham o’yinda uchinchi ishtirokchi bo’lib o’yinda qatnashib borsa bo’ladi. G’olib o’quvchini rag’batlantirib borsa boshqa o’quvchilar ham keyingi bellashuvda ishtirok etishga intiladi. —Bahru-bayt|| ni bunday usulda o’tkazilishi, keyingi she’riy usulda o’tkazishga tayyorlov bosqichi bo’ladi.

A

Assalom aziz mifik,

Assalom mehribon qalb

Assalom ey ustozlar

Avvalo sizga ta’zim

M

Mevalari asl-qand  
Mehri qalbimga payvand  
Mening go'zal chamanim  
O'zbekiston Vatanim  
M  
Mohir mergan to'g'ri olar  
Mudom nishonni  
Tiyraklgi, ziyrakligi  
Baxsh etar shonni  
I  
Ilm izlab tolmayman  
Ikki baho olmayman  
Intilib yusaklarga  
Erishgum istaklarga  
She'riy bellashuv shu usulda davom etadi  
-O'yin fikrlash, izlanish, ifodalab berishga qaratiladi  
-O'yin mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllatirdi  
-O'yin xotirani charhlaydi, hushyorlikni kuchaytiradi.  
-O'yin ongli uqish va ifodali o'qishni oshiradi.  
-O'yin og'zaki nutqni rivojlantiradi.

Dars davomida o'yindan kerakli vaqtida foydalanib, asosiy maqsaddan uzoqlashib ketmaslik kerak. Shundagina ta'lim sifati oshib samarasi ko'rindi.